

## QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY IShLAR SAMARADORLIGI

Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich,  
Mahliyo Kushaliyevna Nomurodova,  
Ra'no Urinboyevna Ergasheva,

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Gumanitar fanlar  
kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi;  
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent;  
2-Respublika tibbiyot kolleji o'qituvchisi.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yangi O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida amalga oshirilayotgan harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy va strategik masalalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, Qurolli Kuchlar, ijtimoiy siyosat, strategiya, yurt tinchligi va barqarorligi.

Bugungi kunda ayrim mintaqalardagi xalqaro munosabatlarning tobora murakkablashib borayotgani, 200 dan ortiq davlatlarning 40 ga yaqinida turli xil milliy - etnik, diniy kelishmovchiliklar hamda xalqlar va davlatlar o'rtasida turli nizolarning tobora chuqurlashib, hattoki, yadroviy tahdidlarning xavfi tobora ortib borayotgan bir davrda mamlakatimiz siyosatining bosh omilida tinchlikparvarlik va barqarorlik printsiplari turganligini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ko'rsatib turibdi. O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyo mamlakatlari bilan ham strategik nuqtai nazardan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamkorlikni mustahkamlab bormoqda. Jamiyatimizda yashovchi insonlarning Vatanga bo'lgan muhabbati ona mehri va ota jasorati orqali namoyon bo'ladi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamolga yetkazadigan, hayotiga ma'no-mazmun bahsh etadigan tabarruk maskandir. Ajdodlardan avlodlarga qoldirilgan buyuk meros va unitilmas xotira orqali Vatanni ulug'laymiz. Ayni Vatan tuyg'usi bilan yashaydigan insonning g'urur iftihori yuksak, maqsad – muddaolari aniq bo'ladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi bebahone'matdir. Insoniyat kishilik taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik va totuvlikka intilib kelgan. O'zbek xalqi tinchlik va barqarorlikni yuksak qadrlaydi. O'z orzu-intilishlarining ro'yobga chiqishikafolati, deb biladi. Shuning uchun ham ozod va obod yashash huquqini shu Vatanda yashayotgan har bir fuqaro ko'z qorachig'idek asraydi. Vatanga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat va

umumbashariyatga munosib bo`lish orqali inson zimmasidagi har bir katta-kichik vazifaga mas`uliyat bilan yondoshadi. Shu bilan mamlakat sarhadlarini mustahkamlash, chegaralarimiz dahlsizligini kuchaytirish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurash har doim insonni ogohlikka da`vat etib turadi. Shu bois, O`zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o`z armiyasiga ega bo`ldi. Bugungi kunda Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning tinchligini ko`z qorachig`idek asrash, barqaror rivojlanishini ta`minlash shu vatanda yashayotgan har bir insonning burchi hisoblanadi. Bu borada yoshlar masalasi yuqori o`rinda turadi. Sababi bugungi zamonaviy sharoitlarda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Boisi harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlar, eng avvalo, yurtining tinchligi – osoyishtaligi uchun o`z jonini kamarbasta qilishgada tayyor turadi. Agar insonlar yuragida vatanparvarlik tuyg`usi ustun bo`lmasa, ularga hech bir sohada ishonib bo`lmaydi. Milliy armiyamizni yoshlarning mardlik, matonat va jasorat maktabiga aylantirish, Vatanga xizmat - oliy saodat ekanligini fuqarolar ongi – shuuriga singdirish va shu orqali Vatan tuprog`idagi oddiy xas ham, oddiy tosh ham muqaddas. Vatan yodi bilan nafas olgan ajdodlarimizga munosib bo`lish eng buyuk saodatdir, degan tushuncha bizning asosiy g`oyamizga aylanishi shart.

Shu sababli 1993 yil 22 noyabrda “O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy qismining jangovor bayrog`i to`g`risidagi” Prezident farmoni imzolanib, Qurolli Kuchlar jangovor bayrog`ining yagona namunasi belgilandi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 29 dekabrdagi O`zbekiston Respublikasining “Vatan himoyachilar kunini belgilash to`g`risida”gi qonuniga binoan, “14 yanvar –Vatan himoyachilar kuni”, deb e`lon qilindi. 1995 yilning avgust oyida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasi esa mustaqilligiga endigina 4 yilgina bo`lgan mamlakatning harbiy sohadagi siyosatini belgilab berdi. Mintaqadagi harbiy siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda 2000 yil 3 fevralda O`zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilindi. 2018 yil 9 yanvarda esa yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to`g`risidagi qonun imzolandi. Doktrina 4 bo`lim, 40 banddan iborat bo`lib, unda umumiy qoidalar, harbiy siyosiy, jihatlar, harbiy strategik jihatlar qamrab olingan.

Harbiy doktrina O`zbekiston Respublikasining Mudofaa siyosatining negizini tashkil etadi. Milliy xavfsizlik umum davlat kontseptsiyasining tarkibiy qismi bo`lib, tashqi siyosat, davlatlararo munosabat masalalariga, urush va tinchlik muammolariga mutlaqo yangicha yondoshuvlarga asoslanadi. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasining ishonchli Mudofaa qobiliyati va Qurolli Kuchlarning yuksak jangovarlik qobiliyati iqtisodiy, siyosiy, strategik hamda harbiy-texnikaviy

va ilmiy kuch qudratni rivojlantirish, O'zbekiston xalqining jipsligi va har bir fuqaroni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim printsipdir.

Shuningdek, 2018 yil 23 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz yoshlarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Buyuk o'tmishimizda yashab o'tgan ajdodlarimiz, xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan, Vatan ozodligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz - Shiroq, To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning ko'rsatgan jasoratini harbiy xizmatchilarimizga doimo namuna sifatida ko'rsatishdan biz doimo faxrlanamiz. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan ancha takomillashdi. Tuzilmalarning harakatchanligi, jangovar qobiliyati, harbiylarning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi oshdi. Harbiy qism va bo'linmalar zamonaviy qurol-yarog` va jangovar texnika bilan ta'minlandi. Milliy armiyamizni professional kadrlar bilan to'ldirish, harbiy xizmatchilarining tayyorgarligini, bilim va ko'nikmalarini yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tafsing sazovor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 12 yanvar kuni Xavfsizlik kengashining navbatdagi yig'ilishida berilgan vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar va harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy holatiga e'tibor qaratishni ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga doimo e'tibor qaratishni vazifa qilib belgilab berdi. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida o'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari misolida harbiy xizmatchilarining o'z milliy va madaniy merosi bilan faxrlanish tuyg'usini oshirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish to'g'risida olib borilayotgan ishlar ko'lamini kun tartibidan tushirmaslikni ta'kidlab, "Harbiy ilmsiz harbiy bilim bo'lmaydi", degan fikrni bildirdi.

Harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoyalash, oilaviy shart-sharoitlarini to'g'rilash, uy-joy bilan ta'minlash masalalari bosqichma-bosqich rejali amalga oshmoqda.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, vatanparvarlik tuyg'usi harbiy sohani anglash, his qilish va idrok orqali yanada mustahkamlanadi. Shuning uchun ham

harbiy sohaga oid o'qitiladigan biror bir fan uzluksiz ta'limning uch bosqichida haftada bir marta o'qitilishi zarur deb hisoblaymiz. Bular maktab, o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlarida...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan keng ko'lami dagi islohotlar mohiyati odamlarning hayotdagi insoniy omilkorligini va ichki imkoniyatlarni yanada teranroq anglashga, his etishga hamda inonibishonib doimo mehnatdan qochmaslikka chorlamoqda. Fuqarolarning, ayniqsa, mamlakat yoshlaringning ma'naviy va jismoniy kamoloti Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi g'oyasi orqali yuksak fuqarolik mas'uliyatini his qilish, anglash, uqish va tushunish hamda bevosita jamiyatga dahldorlik tuyg'usi bilan uyg'unlashuvni buyuk maqsadlarimizning amalga oshishida mustahakam poydevor bo'ladi. Shuningdek, yangi O'zbekiston islohotlarida harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari odimlaymiz.

## **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3726 sonli qarori.
2. Prezident "Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. Vatanparvar gazetasi, 2020 yil, 4 sentyabrъ.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'tkazilgan navbatdagi Xavfsizlik Kengashining yig'ilishidagi ma'ruzasi. Vatanparvar gazetasi, 2021 yil, 15 yanvarъ.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun" – T.:O'zbekiston, 2022 - yil.-B.371.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil 20-sentabr –B.1-2.
6. T. Mamatqabilov, M. Isaeva, N. Vahabov, D. Sayfullayeva SOCIAL AND SPIRITUAL FOUNDATIONS OF PATRIOTISM IN THE NEW UZBEKISTAN // SAI. 2024. №B1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/social-and-spiritual-foundations-of-patriotism-in-the-new-uzbekistan> (дата обращения: 08.02.2024).
7. Mamatqabilov T. et al. OVERCOMING GLOBAL PROBLEMS AND DEVELOPMENT STRATEGIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B10. – C. 230-234.

Sayfullayeva D. D. Q. THE EDUCATIONAL VALUE OF WORKS CREATED ON CHILDREN'S STORIES //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 252-257.



**"Innovations in Science and Technologies"**